

ISSN: 2545-0573

ANOR – (PUNIKA GRANATUM L) O‘SIMLIGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI VA TARQALISHI

G`aniyev Doniyorbek

Katta o`qituvchi, Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar institute

Zuhriddinov Sirojiddin Fazliddin o`g`li

Talaba, Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar instituti

ARTICLE INFO.

Kalit so`zlar:

Anor, yovvoyi, serhosil, shifobaxsh, novdalar, meva, o`simlik, tuproq, dengiz, anginada, og`iz bo`shlig`i.

Annotatsiya

Anor issiqsevar subtropik o`simliklardan bo`lib, qadimdan yovvoyi xolda Eron, Afg`oniston, Turkiya, Kavkaz va O`rta Osiyo respublikalarining tog`li xududlarida turli sharoitlarda uchraydi. Anor o`simligianorgullilar oilasiga mansub. U buta tariqasida rivojlanib, juda serhosil, ko`p tanali bo`ladi. Bo`yi 3-4 metrgacha ko`tariladi. Uzoq yillar umr ko`radi. Barglari mayda, tuzilishi oddiy, rangi yashil, formasi lansetsimon, tuxumsimon bo`ladi. Anorning barglari qishda to`kiladi, tana novdalaridagi kurtaklari esa uyquga ketadi. Kurtaklari ko`klamda yana ko`karib, anor tanasida barg, yangi novda va gullar hosil qiladi. Anorning onalik va otalik gullari bo`lib, onalik guli qumg`on shaklida rivojlanadi va to`kilmaydi. Otalik gullari esa qo`ng`iroq shaklida bo`lib ochiladi va to`kiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O`zbekiston sharoitida yovvoyi anor o`simligi 150-160, madaniysi esa 160-200 kunga qadar vegetatsiya davrini o`tkazadi va 20-25-maydan boshlab gulga kiradi. Ko`plab gullash muddati 1-2 oyga cho`ziladi. Anor o`simligi mevalari generativ novdalarda joylashadi, har yili shu novdalardan gullab meva chiqaradi. Odatda, shirinlari ertaroq pishadi. Anor mevasi bir necha muddat ichida terib olinadi. Chunki bu meva turi bir vaqtda yetilib pishmaydi. Buning sababi shundaki, oldingi gul oldin meva hosil qiladi., kech ochilgan gullar esa kech mevaga kiradi. U pishgan vaqtda mevasi o`sishtan to`xtaydi. Po`sti dag`allashib tirish boshlaydi. Mana shu vaqtda meva pishgan hisoblanadi. Anor o`simligi o`sadigan joylarda sovuq 14-15 gradus bo`lgan vaqtda uning kurtaklarini va bir yillik novdalarini sovuq uradi. Sovuq 18-19 gradus bo`lganda tanasi muzlaydi. Bundan ortiq sovuq bo`lganda tanasi muzlab qoladi. Shuning uchun ham O`zbekistonning shimoliy hududlarida anorni yotqizib tuproqqa ko`mish tavsiya etiladi. Tog`lik hududlarda esa ko`milmaydi. Chunki anor dengiz sathidan 1560 metrga qadar balandlikda o`sadi. [1]

Hozirgi kunda Janubiy Koreya, Malayziya Eron, Chili, Ozarbayjon singari o`nlab mamlakatlarda

Fargʻona anorchiligi tajribasini oʻrganishga qiziqish katta. Vatani Fargʻona boʻlgan qayum, qozoqi kabi anor navlari bugungi kunda AQSH va yevropa davlatlarida mahalliyashtirilmoqda.

2025 yilgacha anorzor maydonini 2 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Anorzorlar toʻliq hosilga kiringach, 10 ming tonna mahsulot yetishtiriladi.

- Anor yordamida endigina boshlanayotgan bir qancha xastaliklarni davolash mumkin
- ✓ Nafas yoʻllari kasalliklarida

Anor poʻstlogʻidan tayyorlangan damlama yoki mevasining sharbati bilan tomoq chayilsa, anginada, OGʻiz boʻshligʻi xastaliklari (stomatit, gingivit) da yordam beradi. Anor tarkibidagi oshlovchi moddalar ogʻriqni qoldiradi., organik kislotalar esa infeksiyani yoʻqotadi.

- ✓ Koʻngil aynishini qoldiradi

Anor sharbati bilan yalpiz damlamasidan teng miqdorda olib qultumlab ichilsa koʻngil aynishiga, qusishga davo boʻladi.

- ✓ Yoʻgʻon ichak yalligʻlanishida

Anor poʻchogʻi yoki gulidan 1 choy qoshigʻi 1 stakan suvda qaynatiladi va 2 soatga damlab qoʻyiladi. Kuniga 3 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi. [5]

- ✓ Yoʻtalga qarshi shifo boʻladi

Anor poʻchogʻi 1 osh qoshigʻi ustiga 1 stakan qaynoq suv quyib, ogʻzi yopiq holda qaynatiladi. Kuniga 1 mahal issiq holda 1 stakandan ichiladi.

- ✓ Ich ketishini toʻxtatadi

Anorning maydalangan poʻchogʻidan 1 osh qoshigʻi ustiga 2 litr suv quyiladi va rangi chiqquncha 10-15 daqiqa qaynatib, tayyor sharbatni ovqatdan yarim soat oldin 1 stakandan ichiladi. Tabobat sultoni Abu Ali ibn Sino anor poʻstlogʻini ich ketishda, qon aralash ich ketarda va boshqa kasalliklarda ishlatgan. [2]

- ✓ Anor juda koʻp foydali xususiyatlarga ega. Bu yurak-qon

tomir tizimini mustahkamlaydi, qalqonsimon bez funksiyasini va qon tarkibini yaxshilaydi, shu jumladan gemoglobinni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Meva beradi antibakterial va yalligʻlanishga taʼsirga ega, sil kasalligini oldini olishda samarali. Va, albatta anor immunitetni oshiradi, viruslardan himoya qiladi. Meva qon bosimini pasaytirishga qodir, shuning uchun anorning foydalari gipertoniya uchun shubhasizdir. [4] U tanadan radioaktiv va tioksinlarni olib tashlaydi, ularning salbiy taʼsirining oqibatlarini bartaraf qiladi va jigarni davolaydi. Zamonaviy xalq tabobatida anor sharbati yoʻtal, tomoq ogʻrigʻi, bezgak (dorilar bilan birgalikda) va isitma (qoʻshimcha dori sifatida) uchun dorivor sifatida ishlatiladi.

- Anorni qanday tanlash mumkin

Suvli va pishgan meva tanlash uchun quyidagilarga eʼtibor berish kerak: rang toʻyingan boʻlishi kerak, yorqin qizildan toʻq qizilgacha. Pishgan anor mevasi yoriqsiz va tashqi nuqsonlarsiz qobigʻga ega. Terida dogʻlar boʻlsa, unda meva haddan tashqari pishgan. Katta mevalar juda koʻp vaznga ega boʻlishi boʻlishi kerak. [3] Agar katta anorning vazni 130 grammdan kam boʻlsa, unda ichidagi donalar allaqachon qurib qolgan, kamroq suvli boʻladi.

- Anor mevasidagi vitamin va minerallar

Anor va uning mevalarini qayta ishlash mahsulotlari juda keng qoʻllaniladi va katta foyda keltiradi. Eng katta qiymat anor sharbati boʻlib, unda tananing normal ishlashi uchun zarur boʻlgan moddalar mavjud: suv (76-78%), shaker (21% gacha), yogʻlar (3%), limon kislotasi (0,07-14%), oqsil (1,5%),

biriktiruvchi moddalar (0,1-0,5%), C vitamini (14%).

Ayrim moddalarning tarkibi nav xususiyatlariga, tuproqqa (kislotali, normal, ishqoriy), yilning ob-havo sharoitlariga (ho‘l, quruq), shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnologiyasiga qarab o‘zgaradi. Sharbat, agar pasterizatsiya qilingan va shisha idishda saqlanasa, o‘z xususiyatlarini ancha vaqt saqlashi mumkin. Yuqori saqlanish sifati va tashish qobiliyati mevalarni deyarli butun yil davomida oziq – ovqat uchun ishlatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. П.П.Колмаков, А.М.Нестеренко. *Минимальная обработка почвы. М колос.*, 1981-240 стр. <https://www.twirpx.com/file/1858723/>
2. Khudoyberdiev, T. S., Boltaboev, B. R., & Kholdarov, M. S. Improved Design of Universal-combined Cultivator-fertilizer. *International Journal on Orange Technologies*, 2(10), 83-85. <https://www.neliti.com/publications/333419/improved-design-of-universal-combined-cultivator-fertilizer>
3. T.S.Khudoyberdiev B.N.Tursunov A.M.Abdumannopov M.Sh.Kholdarov. “Improving Soil Softening Work Bodies Structures”. //Eflatounia// ISSN: 1110-8703 Pages: 131 – 135 Volume: 5 Issue 3. 2021. <https://eflatounia.com/index.php/journal/article/view/576>
4. Khudoyberdiev T. S. Tursunov B. N. Kholdarov.M.Sh. “Reserves for reducing fuel and energy costs for cultivation of cotton in the conditions of the republic of Uzbekistan”. //Innovative Technologica. Methodical research journal// ISSN: 2776-0987 Volume 2, Issue 5, May, 2021 <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/59>
5. TS Xudoyberdiev, BR Boltaboev, BA Razzakov, MS Kholdarov. “to the fertilizer knife determination of resistance”. // Asian Journal of Multidimensional Research.// Vol 9, Issue 8, August, 2020. Pages: 65...71. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=9&issue=8&article=011>